XALQ DEPUTATLARI CHUST TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-17-109-6-89-K/25 Chust tumani

2026-yilda Chust tumani bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2026-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445- va 452-moddalariga muvofiq, tuman soliq inspeksiyasining 2025-yil 27-dekabrdagi 16-13204-sonli xati hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Chust tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va budjet siyosatining 2026-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445- va 452-moddalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Soliq inspeksiyasini hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda tuman hokimligining 2026-yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo‘yicha 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsientlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

3. 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar 1-ilovaga hamda noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy

stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Temirov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (A.Xalilov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Azamxonov) bilan birgalikda mazkur qarorni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati, “Chust haqiqati” gazetasi muharririga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

6. Ushbu qarorni bajarilishini nazorat qilish tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (U.Azizov)ga, ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Temirov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **SALIMJONOV BAXTIYORJON RAXIMJONOVICH**

Xalq deputatlari Chust tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-109-6-89-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respub likasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	**Tuman va shaharlar nomi**	**Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar**		**Sanoat korxonalari**		**Avtotransport vositalarini yuvish**		**Alkogolsiz va alko golli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)**	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Chust tumani	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1	1.1

Xalq deputatlari Chust tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-109-6-89-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh chig‘anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohak toshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, gra nodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktosh dan bloklar	Marmar	Granit lar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Chust tumani	1.2	1.2	1.2	1.2	1.2	1.3	1.3